

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING JORIY HOLATI****Normatova Fotima Botir qizi***Jizzax davlat pedagogika universiteti Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta‘lim) mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslari orqali bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilish, bu o‘rinda ona tili va o‘qish savodxonligi ta‘limiga o‘quv fani emas, balki butun ta‘lim tizimini uyushtiruvchi ta‘lim jarayoni sifatida qarash kerakligi haqida fikr yuritiladi.*

**Аннотация:** *В данной статье посредством занятий «Родной язык и грамотность чтения» дети смогут расширить свою мыслительную деятельность, смогут свободно мыслить, понимать мнение других, устно и письменно выражать свои мысли, свободно общаться с членами общества служить развитию коммуникативных навыков и компетенций, где обучение родному языку и грамоте чтения следует рассматривать как образовательный процесс, который организует всю образовательную систему, а не предмет.*

**Abstract:** *In this article, through the "Mother language and reading literacy" classes, children can expand their thinking activities, be able to think freely, understand the opinions of others, express their thoughts orally and in writing, and communicate freely with members of society. to serve the development of communication skills and competences, where mother tongue and reading literacy education should be viewed as an educational process that organizes the entire educational system, rather than a subject is held.*

**Kalit so‘zlar:** *Ona tili va o‘qish savodxonligi, tafakkur, erkin fikrlay olish, ta‘lim jarayoni, og‘zaki va yozma bayon qila olish.*

**Ключевые слова:** *родной язык и читательская грамотность, мышление, свободное мышление, учебный процесс, устное и письменное выражение.*

**Key words:** *Mother tongue and reading literacy, thinking, free thinking, educational process, oral and written expression.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev shunday deydi: “O‘z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang! Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko‘rgan to‘siq va qiyinchiliklarni ko‘rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib, voyaga yetyapsizlar. Yuksak maqsadlar yo‘lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo‘lishingiz

kerak. Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas'uliyatni, tom ma'nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat'iy ishonaman"<sup>1</sup>.

Ta'lim sharoitida o'quvchi va o'quv materialining o'zaro ta'siri bolalar ongida yangi-yangi bog'lanishlarning shakllanishiga olib keladi. O'quvchi faoliyatining mahsuli, ta'lim natijasi ta'lim jarayonida bolalar oldiga qo'yilgan maqsadlarga ko'ra o'lchanadi. Erishilgan natija qo'yilgan maqsadga qancha yaqin bo'lsa, ta'lim shuncha samarador sanaladi. Ta'limning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzumga muvofiq fan, texnika, texnologiyalar, ishlab chiqarish, madaniyat, ijtimoiy hayot taraqqiyoti asosida tarixan o'zgarib borishi bilan birga umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishning didaktik tavsifini ham belgilaydi. Ta'limning maqsadi o'qitishning ma'lum maqsadga qaratilganligi va unga muvofiq kelishini o'zida aks ettirgan, ta'limning ijtimoiy xususiyati, jamiyat hayotidagi ahamiyatini ochib beradigan, uning yo'nalishi, mazmuni, shakl va usullarini belgilab beradigan ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

Butun ta'lim jarayoni – o'quv materialidan boshlab, ta'lim natijasigacha ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ta'lim maqsadi oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, ta'lim jarayonida belgilangan muayyan talablarga mos shaxs shakllantirilishi lozim.

Ayrim didakt-olimlar I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, N.V.Savin va boshqalar ta'lim maqsadi ikki sub'ekt – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini ta'lim jarayoniga kiritadi, deb hisoblaydilar. Ikkinchi guruh olimlar esa S.P.Baranov, V.A.Slastenin, R.Safarova, U.Musaev, O.R.Roziqov va boshqalar ta'lim jarayonini «ikki sub'ekt faoliyatining o'zaro uyg'unlashuvidan shakllanadigan hosila» deb qaraydilar. Nazarimizda, ta'lim maqsadini ta'lim jarayoniga o'rgatuvchi va o'rganuvchini kirituvchi vosita sifatida qarash ta'lim haqidagi umumiy mantiqqa hamohangdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mujassamlashuvida ta'limning maqsadi aniq va ravshan tushunilmaganligi sezilsa, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari cheklanadi. Ta'lim jarayoniga noto'g'ri yondashish natijasida esa o'quv jarayoni oldiga qo'yilgan asosiy maqsadga erishib bo'lmaydi. Ta'limning aniq belgilab berilgan maqsadi esa o'quv-biluv jarayonida jamiyat talablarini qondira oladigan shaxsni «loyihalash» imkonini beradi. Shunday ekan, ta'limning maqsadi aniq anglanmagan yoki hisobga olinmagan holda o'quv jarayonida ko'zda tutilgan natijaga erishish mumkin emas.

Mamlakatimizda har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining pirovard maqsadi o'laroq belgilab olingan. Mazkur maqsad ob'ekti bo'lgan intellektual salohiyatli shaxs uchun kasbiy kompetentlik bilan birga umumiy kompetentlikka ega bo'lish ham muhim sifat sanaladi. Ta'lim amaliyotiga kompetentlik nuqtai nazaridan yondashuv uzoq davr ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim berishning yetakchi mavqeda bo'lib kelgani bois amaliy ko'nikmalarning shakllanmay

---

1. Sh.M.Mirziyoyev Yoshlar forumidagi nutqi. 25-dekabr 2020-yil.

qolishi bilan bog'liq salbiy oqibatlariga barham beradi. “Bunda “an’anaviy ta’limda ustun bo’lgan “bilish paradigmasi” o’rniga “bilimlardan muammoli vaziyatlarda o’rinli foydalanish” paradigmasi ustunlik qilmoqda”. Albatta, bunday yondashuv bilish paradigmasini inkor etmaydi, chunki har qanday amaliy faoliyat ibtidosi bilimdir. Faqat bu yondashuv uni muammoli vaziyatlarda qo’llay olish paradigmasiga bo’ysunadigan orqa plandagi paradigma maqomiga tushiradi. Tasavvur qilaylik, bir odamning mashinasi bor. Bu odam mashinaning ichki va tashqi tuzilishi, qismlari va ularning vazifalarini, yo’l qoidalarini bilsa-yu, lekin unda mashina haydash amaliyoti bo’lmasa, avtoullov borligining kishiga qanday foydasi bor? Xuddi shu kabi ta’lim jarayonida o’quvchi fanlardagi qonun, qoida, ta’riflarni yodlagani holda ularni qachon, qayerda va qay tarzda qo’llashni bilmasa, hayotda o’z o’rnida ishlata olmaydi va asta-sekin xotirasidan ham ko’tarilib ketadi.

O.S.Issersning ta’kidlashicha, muloqot jarayonida adresat nutqi quyidagi parametrlarda o’z aksini topadi:

- u o’z nutqida o’z “men”ini, shaxsiy xususiyatlarini (bevosita yoki bilvosita, o’z mavqeini ko’tarish yoki pasaytirish darajasida) namoyon qiladi;

- so’zlarni qo’llashda odobliligini (xushmuomalalik borasida suhbatdoshini o’ziga jalb qilishga qiziqish yoki qiziqmasligini) namoyon qiladi;

- fikr almashinuv jarayonida suhbatdoshlar o’z nutqlarining kommunikativ tayanch ta’sirning samaradorligini nazorat qiladilar (ohangni ongli tarzda tanlaydi, vaziyat va holatni boshqaradi).

Pragmalingvist J.Lich bu borada hurmat tamoyili tushunchasini taklif etadi va uning voqelanishi tamoyilning quyidagi oltita qoidasi faollashuvidan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odo qoidasi (suhbatdosh urinishlarini sarfini kamaytir, uning foydasini ko’paytirishga harakat qil);

2. Himmat, oliyjanoblik qoidasi (o’z foydangni kamroq ko’zla, barcha sarfni o’z zimmangga ol);

3. Ma’qullash, tahsin qoidasi (o’zgalarni yomonlama, g’iybat qilma, koyima);

4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o’z-o’zingni maqtashni keskin kamaytir);

5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);

6. Xush ko’rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrixoh, oqko’ngilli bo’l).

Ma’lumki, Ona tili va o’qish savodxonligi fanini o’qitishda asosiy e’tibor o’quvchida tilga doir to’rt ko’nikma: o’qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so’zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi<sup>1</sup>.

“Ona tili va o’qish savodxonligi” darslari orqali bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o’zgalar fikrini anglash, o’z fikrlarini

2. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh., Hakimova N. Baxtiyorova H. Ona tili va o’qish savodxonligi 2-sinf o’qituvchilari uchun metodik qo’llanma – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. 4-bet

ogʻzaki va yozma bayon qila olish, jamiyat aʼzolari bilan erkin muloqotda boʻla olish koʻnikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu oʻrinda ona tili va oʻqish savodxonligi taʼlimiga oʻquv fani emas, balki butun taʼlim tizimini uyushtiruvchi taʼlim jarayoni sifatida qaraladi. Xorijiy tajribalardan foydalanish boshlangʻich taʼlimda “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darslarining samaradorligini oshirishga yanada yordam beradi.

Innovatsion taʼlim sharoitida boshlangʻich sinf ona tili darslarining samaradorligini oshirish toʻgʻrisida fikr yuritilganda uning ikki xil maʼnosini farqlash kerak:

1. Ona tili va oʻqish savodxonligi taʼlimi mazmuni va bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalar tizimi. Bunda ona tili taʼlimini loyihalashtirish, oʻqituvchilar va oʻquvchilarning oʻquv topshiriqlari maqsadini ajrata olishlari, oʻquv topshiriqlari taʼlim jarayonining didaktik maqsadlariga mosligi, oʻquv topshiriqlari bilan oʻquv materialini oʻqitish maqsadi oʻrtasidagi muvofiqlik, oʻquv topshiriqlarida taʼlimning taraqqiy ettiruvchanlik va tarbiyaviy maqsadlarini qamrab olishi kabi elementlardan iborat boʻlib, ularning har biri oʻziga xos vazifa va vositalarga ega.

2. Innovatsion taʼlim sharoitida boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarining samaradorligini oshirish jarayoni. Innovatsion taʼlim sharoitida ona tili va oʻqish savodxonligi taʼlimini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini taʼminlovchi muhim shartlaridan biridir.

Har bir oʻquv predmetining mazmuni shu maqsadning u yoki bu qirrasini ifodalashi, oʻquv fanining xususiy maqsadi taʼlimning umumiy maqsadiga uygʻun tarzda ifodalanishi, shuningdek, muayyan oʻquv fani boʻyicha belgilab beriladigan taʼlim mazmuni, oʻquv materiallari, oʻqitish metodlari, oʻqitish vositalari shu maqsadga muvofiq kelishi zarur.

Innovatsion taʼlim sharoitida boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarining samaradorligini oshirish quyidagilarga imkon beradi:

- oʻquvchilarda bilish ehtiyojini shakllantiradi;
- oʻquvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi;
- oʻquvchilarda fanni oʻrganishga qiziqishni oshiradi;
- axborot bilan ishlashni oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqni oshiradi;
- dunyoni ilmiy bilishning hozirgi zamon metodlari bilan tanishtiradi;
- taʼlimda oʻquvchining individuallik darajasini oshiradi;
- oʻquvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
- materiallar mazmunining xilma-xilligini taʼminlaydi;
- ona tili va oʻqish savodxonligi taʼlimida foydalaniladigan oʻquv materiallari doirasini kengaytiradi;
- oʻquvchilarning oʻz-oʻzini nazorat qilishi, yaʼni baholash jarayonining omillarini kengaytiradi va h.k.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslari samaradorligini oshirishning joriy holati haqida so'z yuritar ekanmiz, bugungi kunda yuqori zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan darslik, metodik qo'llanmalar hamda multimedia vositalari orqali dars samaradorligi oshib bormoqda. Mazkur maqoladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, oliy ta'limning professor-o'qituvchilari, bakalavr hamda magistratura talabalariga ham foydalanishni tavsiya beramiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Yoshlar forumidagi nutqi. 25-dekabr 2020-yil.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: - "O'zbekiston", 2017-546
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh., Hakimova N. Baxtiyorova H. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
4. Abdullaeva Q, Safarova R. va b. Boshlang'ich ta'lim kontsepsiyasi // Boshlang'ich ta'limning asosiy yo'nalishlari, T: 24.10.2020
5. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. – Ped. fan. doktorlik diss. avtoreferati. –T.: 2005.– 44 b.
6. Davlat ta'lim standarti. T. "O'qituvchi". 2017

**Internet saytlari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)